

QISHLOQ XO‘JALIGI MAHSULOTLARINI YETISHTIRISHDA XALQARO STANDARTLAR ASOSIDA SIFAT VA XAVFSIZLIKNI TA’MINLASH

F.M.Asilova

TOSH DAU universiteti assistenti

Sotvoldiyeva Shodiyona Toyboldi qizi

TOSH DAU universiteti talabasi

Annotation. Bugungi kunda O‘zbekiston qishloq xo‘jalik mahsulotlarining o‘ta qimmatli navlarini yetishtirish va qayta ishlash, ularni eksport qilish sohasida katta salohiyatga ega. Agrar sektorda eksportga mo‘ljallangan mahsulot ishlab chiqarishni yo‘lga qo‘yish va uni qayta ishlaydigan sanoatni yetakchi o‘ringa ko‘tarish qishloq xo‘jaligida barqaror iqtisodiy o‘sishni ta’minlaydi. Ushbu vazifani hal qilish, mamlakatimiz Prezidenti Sh.M. Mirziyoyev bir necha bor ta’kidlaganidek, qishloq xo‘jaligi mahsulotining sifatini hamda uni qayta ishlaydigan korxonalarning samaradorligini oshirishni, ichki va tashqi sotish bozorlarini yanada kengaytirishni talab qilmoqda.

Аннотация. Сегодня Узбекистан обладает большим потенциалом в области выращивания и переработки особо ценных сортов сельскохозяйственной продукции, их экспорта. Налаживание производства экспортной продукции в аграрном секторе и выдвижение на лидирующие позиции обрабатывающей промышленности обеспечивает устойчивый экономический рост в сельском хозяйстве. Решение этой задачи Президент нашей страны Ш.М. Мирзиёев неоднократно заявлял о необходимости повышения качества сельскохозяйственной продукции и эффективности перерабатывающих предприятий, дальнейшего расширения внутреннего и внешнего рынков сбыта.

Annotation. Today, Uzbekistan has great potential in the field of cultivation and processing of especially valuable varieties of agricultural products and their export. The establishment of export production in the agricultural sector and the promotion of the manufacturing industry to a leading position ensures sustainable economic growth in agriculture. The solution to this problem is the President of our country, S.M. Mirziyoyev has repeatedly stated the need to improve the quality of agricultural products and the efficiency of processing enterprises, further expand domestic and foreign markets.

Kalit so‘zlar. Qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini standartlashtirish, xalqaro standartlar, Global G.A.P. standarti, mahsulotlarining sifati.

Ключевые слова. Стандартизация сельскохозяйственной продукции, международные стандарты, Global G.A.P. стандарт, качество продукции.

Keywords. Standardization of agricultural products, international standards, Global G.A.P. standard, product quality.

Mamlakatimiz mustaqillikka erishganidan keyin xalq xo‘jaligining barcha tarmoqlarida yangicha ish yuritish davr talabiga aylandi. Mustaqilikka erishganimizdan keyin dunyo bozori talablarini hisobga olgan holda mahsulotlarga qo‘yilgan standartlar va texnik shartlarni qayta ko‘rib chiqish, xalq xo‘jaligiga metrologik xizmat ko‘rsatishni takomillashtirish mahsulot sifatini boshqarish bo‘yicha kompleks tadbirlarni joriy qilish zarurati vujudga keldi.


Qishloq xo‘jaligi va oziq-ovqat sanoati mahsulotlarini standartlashtirish va ularni sifatini baholash zarurati tug‘ildi. Sababi esa mahsulotlarni jahon standarti talablariga tenglashtirish va aholini sifatli va xavfsiz mahsulot bilan taminlashdir. Masalan, don va don mahsulotlarini qayta ishlash tarmoqlari oldida turgan asosiy vazifalar keng assortimentdagi mahsulotlarni ishlab chiqarish, don, un, yorma, omuxta yemlar, oqsilli-vitaminli qo‘shimchalar, non, makaron, sifatini yaxshilash jahon standartlari talablariga javob beradigan mahsulotlar ishlab chiqarish hisoblanadi. Bu vazifalarni ruyobga chiqarish uchun mahsulotlarni standartlashtirish muhim rol o‘ynaydi.

Qishloq ho‘jaligi mahsulotlarini standartlashtirish bir qancha afzalliklarga ega. Jumladan:

- Mahsulotlar axolining hayoti, salomatligi va mol – mulki, atrof – muhit uchun xavfsizligi, resurslarni tejash masalalarida iste’molchilarining va davlatning manfaatlarini ximoya qiladi;
- Aholi va xalq xo‘jaligining ehtiyojlariga muvofiq mahsulotlarining sifati hamda raqobatbardoshliligin oshiradi;
- Iste’molchilarini ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar nomenklaturasi va sifati to‘g‘risidagi to‘liq va ishonarli axborot bilan ta’minlaydi;

Ishlab chiqaruvchi (sotuvchi, ijro etuvchi) ma’lum qilgan mahsulot sifati to‘g‘risidagi ko‘rsatkichlarini tasdiqlaydi.

Xalqaro standartlarni qo‘llash va rivojlangan davlatlar milliy standartlaridan foydalanish mamlakatimizda standartlashtirish sohasida ustivor yo‘nalishlardan hisoblanadi. O‘zbekiston Respublikasining “Standartlashtirish to‘g‘risida”gi Qonunning 6- moddasiga muvofiq va texnologiya va uskunalar texnik darajasini hisobga olgan holda standartlardan yanada samarali foydalanish uchun “O‘zstandart” agentligi normativ xujjatlar fondida bugungi kunda 44000dan ko‘proq me’yoriy xujjatlar jamlangan. Ularning 8116 xalqaro standartlar, 20393 davlatlararo standartlar, 8679 xorijiy mamlakatlarning milliy standartlari, 1679 O‘zbekiston Respublikasi davlat standartlari, 168 tarmoq standartlar, 4692 texnik shartlar, 334 korxona standartlari, 198 rahbariy xujjatlari tashkil qiladi (1-rasm).



1-rasm. Me'yoriy xujjatlarning toifalari bo'yicha taqsimlanishi

Turli sohalarda faoliyat ko'rsatayotgan karxonalarda ISO 9001, ISO 14001, ISO 22000 xalqaro standartlari asosida sifatni boshqarish tizimlari joriy etilmoqda. Jumladan Respublikamiz qishloq xo'jaligi sohasi kesimida standartlarning qo'llanilishi tahlil qilinganda turli sohalarda xalqaro standartlar talablariga muvofiq mahsulotlar ishlab chiqarilayotganligini ko'rsatadi.

Yuqoridagi ma'lumotlardan ko'rinish turibdiki bugungi kunda Qishloq xo'jaligi sohasida milliy, qalqaro va uyg'unlashgan standartlarning qo'llanilishi yildan yilga oshib bormoqda. (**1-jadval**).

Belgilanishi va nomlanishi	
O'z DSt ISO 1134:2010 Noklar – sovuq holda saqlash	
O'z DSt ISO 2826:2010 O'riklar sovuq sharoitda saqlash bo'yicha yo'riqnomा	
O'z DSt ISO 873:2010 Sovuq sharoitda saqlash bo'yicha yo'riqnomा	
O'z DSt ISO 8682:2010 Nazoratli atmosfera sharoitida saqlash bo'yicha yo'riqnomা	
O'z DSt ISO 1212:2010 Olmalar – sovuq holda saqlash	
O'z DSt ISO 874:2011 Meva va sabzavotlar – namuna olish	
O'z DSt ISO 949:2011 Gulkaramlar – sovuq sharoitda saqlash va sovutilgan holda tashish bo'yicha yo'riqnomা	
O'z DSt ISO 2169:2011 Meva va sabzavotlar – sovuq sharoitda saqlashning fizikaviy talablari – tariflar va o'lchovlar	
O'z DSt ISO 2165:2011 Kartoshka – saqlash bo'yicha yo'riqnomা	

	O‘z DSt ISO 9833:2011 Qovunlar sovuq sharoitda saqlash va sovutilgan holda tashish
	O‘z DSt ISO 1973:2011 Piyozlar - sovuq sharoitda saqlash bo‘yicha yo‘riqnomा
	O‘z DSt ISO 6659:2011 Shirin qalampirlar – sovuq sharoitda saqlash va savutilgan holdp tashish bo‘yicha yo‘riqnomা
	O‘z DSt ISO 2166:2011 Sabzilar – saqlash bo‘yicha yo‘riqnomা
	O‘z DSt ISO 750:2011 Meva va sabzavot mahsulotlari – titratlanuvchi kislotani aniqlash
	O‘z DSt ISO 7560:2011 Bodring – saqlash va sovuq sharoitda tashish
	O‘z DSt ISO 3659:2011 Meva va sabzavotlar – sovuq sharoitda saqlashdan so‘ng yetiltirish
	O‘z DSt ISO 1842:2011 Meva va sabzavot mahsulotlari - pH ni aniqlash
	O‘z DSt ISO 5525:2011 Pamidor – sovuq sharoitda saqlash va tashish bo‘yicha yo‘riqnomা
	O‘z DSt ISO 3634:2011 Sabzavot mahsulotlari – xlorid tarkibini aniqlash
	O‘z DSt ISO751:2011 Meva va sabzavot mahsulotlari – suvda erimaydigan moddalarini aniqlash
	O‘z DSt ISO 1026:2011 Meva va sabzavot mahsulotlari: past bosim ostida quritish orqali mahsulotlardagi quruq moddalar tarkibini va azeotropik uslubda modalarni tarkibiy qismga ajratish orqali suvli modda tarkibini aniqlash
	O‘z DSt ISO 1955:2011 Sitrus mevalar va ulardan qayta ishlangan mahsulotlar: efir moyi tarkibini aniqlash (namunaviy uslub)
	O‘z DSt ISO 3631:2011 Sitrus mevalari - saqlash bo‘yicha yo‘riqnomা
	O‘z DSt ISO 2447:2011 Meva va sabzavot mahsulotlari - qalay tarkibini aniqlash
	O‘z DSt ISO 2848:2011 Meva va sabzavot mahsulotlari – etil spirti miqdorini aniqlash
	O‘z DSt ISO 2168:2011 Uzum saqlash bo‘yicha yo‘riqnomা
	O‘z DSt ISO 9526:2011 Mevalar, sabzavotlar va ulardan olingan mahsulotlar: olovli atom absorbsion spektrometriya uslubida temir tarkibini aniqlash
	O‘z DSt ISO 6662:2011 Olxo‘rilar – sovuq sharoitda saqlash bo‘yicha yo‘riqnomা

	O‘z DSt ISO 2173:2011 Meva va sabzavot mahsulotlari – eruvchan qattiq moddalarni aniqlash - refraktometrik uslub
	O‘z DSt ISO 762:2011 Meva va sabzavot mahsulotlari: mineral aralashmalar tarkibini aniqlash

Xulosa. Jahonda qishloq xo‘jaligi maxsulotlarini yetishtirish, ishlab chiqarish va qayta ishlashda sifatni ta‘minlashga yo‘naltirilgan xalqaro standartlar o‘rganildi va tahlil qilindi. O‘rganish va tahlil qilish natijasida qishloq xo‘jalik maxsulotlari sifati va xavfsizligini ta‘minlashda jahonda yuqori ko‘rsatgichlarga ega xalqaro Global G.A.P. standartini O‘zbekistonda joriy etish bo‘yicha takliflar berildi. Ushbu standartni O‘zbekistonda samarali joriy etish bo‘yicha usul va chora tadbirlar rejası loyihasi ishlab chiqildi. Bular esa respublikamiz qishloq xo‘jaligi mahsulotlari sifati va raqobatbardoshligini ta‘minlash hamda eksportbop mahsulotlarning hajmini oshirishda yetishtiruvchi va ishlab chiqaruvchi korxonalarning halqaro sifat standartlarini o‘zida joriy etish va ular asosida qishloq xo‘jalik maxsulotlarini sertifikatlashtirish bo‘yicha ishlarni tashkillashtirishda amaliy yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasining birinchi prizidenti I.A.Karimov, “Jahon moliyaviyiqtisodiy inqirozi, O‘zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo‘llari va choralar”, O‘zbekiston: Toshkent, 2009y., 486 b.
2. O‘z DSt ISO 9000:2009 «Sifat menejmenti tizimlari. Asosiy qoidalar va lug‘at».
3. O‘z DSt ISO 9001:2009 «Sifat menejmenti tizimlari. Talablar».
4. O‘z DSt ISO 9004:2009 «Sifat menejmenti tizimlari. Faoliyatni yaxshilash bo‘yicha tavsiyalar».
5. Global GAP (EurepGAP) kontrolnye tochki i kriterii sootvetstviya integrirovannaya sistema bezopasnosti i kachestva selskoxozyaystvennogo proizvodstva. Vvedenie, kod: IFA 3.0-2 CP, versiya: V.3.0-2_Sep 07, 33 c.
6. P.R.Ismatullaev, A.Turg‘unboev, B.Ismoilov, «Qishloq xo‘jalik korxonalarida sifat menejmenti tizimini joriy etishning afzalliliklari va muammolari», »Agrosanaot majmuida standartlashtirishni rivojlantirishning ilmiy asoslari» respublika ilmiy-texnik anjuman, maqolalar to‘plami, 2011 y., 99-102 b.